

“NIKOH SHARTNOMASI VA UNGA BOG‘LIQ MASALALAR”

Ma‘murov Abbosbek Salohiddin o‘g‘li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro biznes huquqi yo‘nalishi 1-
bosqich magistranti*

Annotatsiya: 1998-yil 1-sentyabrdan kuchga kirgan Oila kodeksiga nikoh shartnomasi tushunchasi kiritilgan. Oila kodeksi loyihasi matbuotda e‘lon qilingach, joylardan nikoh shartnomasiga oid ko‘plab takliflar tushdi. Ayrimlar nikoh shartnomasi tushunchasining kodeksga kiritilishini nikoh davrida yoki nikohdan ajralishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan mulkiy nizolarning kamayishiga olib keladi, deb ma‘qullagan bo‘lishsa, ba‘zilar nikoh shartnomasi tuzishga hech qanday ehtiyoj yo‘q, u bizning oilalarga to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun qonunga kiritilishi maqsadga muvofiq emas, degan fikr bildirishdi. Albatta muhokamalardan so‘ng bu tushuncha qonunga aylandi. Ushbu maqolada biz avvalo, nikoh shartnomasi nima ekanligi haqida ma‘lumot beramiz. Bundan tashqari nikoh shartnomasining obyekt, subyekt, shartnomaning tuzilish shakli va boshqa shu kabi masalalarni tahlil qilamiz. Qolaversa, nikoh shartnomasining ahamiyati, uni tuzganda tomonlar uchun qanday manfaatlar borligiga haqida ham ma‘lumot beramiz.

Kalit so‘zlar: oila kodeksi, nikoh shartnomasi, nikohlanuvchi shaxslar, mulkiy munosabatlar, shaxsiy nomulkiy munosabatlar.

KIRISH Nikoh shartnomalari hozirgi davrda G‘arbiy Yevropa davlatlarida, AQSH, Kanadada ommalashgan. Bu tadbir, dastlab ming yillar ilgari Gretsiya va Rimda kelib chiqqan, ya‘ni erkak va ayol nikoh tuzishdan avval mulkiy munosabatlari - kelgusida orttiradigan mulk va meros masalalari haqida kelishuvni rasmiylashtirishgani haqida ma‘lumotlar mavjud.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida oilaning davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi nazarda tutilgan bo‘lsa, oila a‘zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari, nikoh shartnomasiga oid qoidalar Oila kodeksida belgilangan.

Nikoh shartnomasi instituti dastlab 1998-yil 1-sentyabrdan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida yoritildi va qonunchilikka kiritildi. Oila kodeksining VI bobi er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibiga bag‘ishlangan. Oila kodeksida Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanishi¹ belgilab qo‘yilgan. Endilikda qonuniy (rasmiy) mulk tartibi bilan birga mulkning shartnomaviy tartibiga ham o‘rin berildi. Ya‘ni, er-xotin o‘zlarining mol-

¹ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 29-modda

mulkiga, uning ayrim turlariga yoki er-xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqli ekanliklari belgilandi. Fuqarolik-huquqiy shartnomalardan biri sifatida nikoh shartnomasi shakli, mazmuni jihatidan Fuqarolik kodeksining bitimlarga qo'yiladigan umumiy talablariga javob berishi, yozma tarzda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.² Shartnoma notarial tartibda tasdiqlanadi. Uni tasdiqlaganda, o'zgartirish kiritilganda yoki bekor qilinganda davlat boji undirilmaydi. Shartnoma nikoh qayd etilishidan avval yoki qayd etilganidan keyin - istalgan vaqtda tuzilishi mumkin; nikohgacha tuzilgan bo'lsa, nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan, nikohdagi er-xotin tomonidan tuzilgan bo'lsa, shartnoma notarial tasdiqlangan kundan kuchga kiradi. Nikohlanuvchilar shartnoma tuzganidan keyin, qachon nikoh tuzishlari lozimligi belgilanmagan. Biroq shartnoma qachon tuzilganidan qat'i nazar, faqat nikoh qayd etilgach, kuchga kiradi. Shartnoma tuzilgani, unga o'zgartirishlar kiritilgani yoki bekor qilingani haqida er (xotin) o'z kreditorlarini xabardor qilishi lozim³.

Nikoh shartnomasi tushunchasi er-xotinga birgalikdagi mulklarini egallash, foydalanish, tasarruf qilishning qonuniy yoki shartnomaviy huquqiy rejimini tanlash imkonini berdi. Biroq bizning qonunchiligimizda nikoh shartnomasi er-xotinning faqat mulkiy huquq majburiyatlarini belgilaydi, xolos. Shaxsiy huquq va majburiyatlarini esa er-xotin o'zaro kelishib hal qilaveradi. Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 1-martdan kuchga kirgan yangi qabul qilingan Oila kodeksining 4-moddasida ham nikoh shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanishi ko'rsatilgan. U ham bizning respublikamizdagi singari er-xotinning faqat mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ba'zi bir davlatlarda, masalan, AQSHda esa nikoh shartnomasi tushunchasi er-xotinning nafaqat mulkiy huquq majburiyatlarini, balki shaxsiy huquq majburiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Demak, AQSHdagi nikoh shartnomasi respublikamizdagi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ko'zda tutilgan nikoh shartnomalaridan o'z predmeti doirasi bilan farq qiladi. Nikoh shartnomasi tushunchasining Oila kodeksiga kiritilgani barcha nikohlanuvchilar shartnoma tuzishi kerak, degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, nikoh shartnomasi tuzish yoki tuzmaslik er-xotinning ixtiyoridadir. Shartnoma tuzish uchun majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotinga kelishilgan holda nikohda bo'lgan davrlarida yoki nikohdan ajralgan davrlarda mulkka nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini aniqlab olish imkonini yaratadi. Biroq bu shartnomada biror tomonni og'ir ahvollarga solib qo'yuvchi, qonunga zid shartlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Lekin xar qanday holda ham nikoh qonuniy ravishda davlat organida ro'yxatdan o'tgach, shartnoma kuchga kiradi. Bordiyu nikoh tuzishdan avval shunday shartnoma tuzilgan bo'lsada, nikoh tuzilmasa bunday

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 30-modda

³ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 35-modda

nikoh shartnomasi kuchga kirmaydi. Chunki uning kuchga kirishi uchun nikoh tuzilishi kerak.

Nikoh shartnomasini tuzishda quyidagi cheklashlarga amal qilinadi:

- shartnomaga er-xotinning huquq va muomala layoqatini cheklovchi qoidalar kiritilmaydi (er xotinni ishdan bo'shab uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishi shart, degan talab qo'yishi, vasiyat erkinligini taqiqlovchi, sudga murojaat qilish huquqini cheklovchi qoidalar);

- shaxsiy munosabatlar haqidagi qoidalar kiritilmaydi. Biroq mulkiy munosabatlar nomulkiy shart-sharoitning sodir bo'lish-bo'lmasligiga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin. Masalan, er yo xotin o'zini noloyiq tutgan (xiyonat, kaltaklash) hollarda ma'naviy ziyonni qoplashi yoki farzand tug'lsa, er xotinga qimmatbaho uzuk yoki mo'ynali palto sovg'a qilish majburiyati nazarda tutilishi mumkin;

- shartnomada farzandlarga munosabat, ajralgan taqdirda bolalarning kim bilan qolishi, aliment undirish masalalari kiritilmaydi;

- mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er-xotinning ta'minot olish huquqini cheklash mumkin emas. Chunki bu Oila kodeksi tamoyillariga ziddir.

Nikoh shartnomasi ko'pincha muddatsiz tuziladi. Ma'lum vaqt o'tgach yoki istalgan vaqtda er-xotin kelishib, unga o'zgartirish kiritishlari, uni bekor qilishlari mumkin. Uni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Odatda, taraflardan biri ma'lum sababga ko'ra shartnomani bajarolmasa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish taklif etilishi kerak. Kelishuv orqali shartnoma notarial tartibda, aks holda, sud orqali bekor qilinadi.

Shartnoma shartlari bir tomonlama buzilayotganini yoki tuzilgan paytdagi shartlar butunlay o'zgarib ketganligini asos qilib, uni sud orqali bekor etishni talab qilish mumkin. Shartnoma sud orqali o'zgartirilgach, sud qarori kuchga kirgandan so'ng o'zgartirilgan hisoblanadi. Nikoh shartnomasi nikoh ajratilganligi haqida sudning qarori kuchga kirgach yoki FHDYoda ajralish qayd etilgach tugatiladi.

Nikoh shartnomasining haqiqiy emas deb topilishiga uning qonun talablariga rioya qilmay tuzilganligi asos bo'ladi. Haqiqiy emas deb topilganda nikoh shartnomasi hech qanday huquqiy oqibat tug'dirmaydi va taraflar mulkiy munosabatda dastlabki holatga qaytadilar.⁴

Nikoh shartnomasining afzalligi shundaki, u mulkiy munosabatlarni tartibga solish orqali oilani mustahkamlaydi, er-xotinni bir-biriga tegishli mulkdan to'g'ri foydalanishga va uni yaxshi saqlashga, mulkiy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga undaydi. Darhaqiqat, sud orqali mulkni bo'lishdek ko'ngilsiz tortishuvlarni boshidan kechirganlar nikoh shartnomasi zarurligini tasdiqlamoqdalar. Bu borada huquqiy targ'ibotning kuchaytirilishi, nikohlanuvchilarning nikoh shartnomalari qoidalari bilan tanishtirilishi kelgusida nikoh shartnomalarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

⁴ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/nikoh-shartnomasi-haqida>

XULOSA

Yuqorida nikoh shartnomasi nima ekanligi, u qanday holatlarda va kimlar o'rtasida tuzilishi haqida ma'lumotlar berildi. Nikoh shartnomasi nikoh tuzilganidan keyin va shartnoma notarial tartibda tasdiqlanganidan so'ng kuchga kirishi haqida aytib o'tildi. Bundan tashqari, bizning qonunchiligimizda nikoh shartnomasi er-xotinning faqat mulkiy huquq majburiyatlarini belgilashi, shaxsiy huquq va majburiyatlarini esa er-xotin o'zaro kelishib hal qilaverishi biroq, boshqa ko'plab davlatlarda xususan, AQSHda esa nikoh shartnomasi tushunchasi er-xotinning nafaqat mulkiy huquq majburiyatlarini, balki shaxsiy huquq majburiyatlarini ham o'z ichiga olishi kabi masalalar tahlil qilindi. Qolaversa, nikoh shartnomasi tuzayotgan paytda unga kiritilishi mumkin bo'lmagan holatlarga ham alohida to'xtalib o'tildi. Shuningdek nikoh shartnomasining ahamiyati, uni tuzganda tomonlar uchun qanday manfaatlar borligiga haqida ham ma'lumotlar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi
2. O'zbekiston respublikasining oila kodeksi 01.09.1998
3. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi ,t.,2005, 185 b.
4. Oila huquqi: darslik/f.m. Otaxo'jayev, sh.r. Yuldasheva;o'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - t.: cholpon nomidagi nmiu. 2013, 208 b.
5. Raxmonqulova n.x-a. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari. Monografiya. – t.: artflex. 2011 y.
6. raxmonqulova n. Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishga doir munosabatlarni tartibga solinishi: o'quv qo'llanma. – t., 2012.
7. zulfiya mo'minova nikoh shartnomasi: risola toshkent "yangi asr avlodi" 2004
8. Lex.uz
9. Advice.uz
10. aniq.uz